



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-iyul

318-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PQ-187-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 279-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PQ-187-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi 279-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi 279-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer qa‘ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoniga muvofiq quyidagilar:

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari 1-ilovaga muvofiq;

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda kongeologiya sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda - Inspeksiya) mansabdor shaxslari davlat nazoratini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega bo‘lishi:

Inspeksiyaning nazorati ostidagi obyektlarga to‘sqinliksiz kirish;

tog‘-kon, metallurgiya, geologiya hamda yer qa‘ridan foydalanish sohalarida, shu jumladan neft va gaz sohasida geologiya-qidiruv ishlari, uglevodorod xomashyosini qazib olish (konchilik) va qayta ishlash ishlari, portlatish ishlarini bajarishda sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini va yer osti suvlaridan foydalanilishini nazorat qilish;

yer qa'ridan oqilona foydalanish hamda sanoat xavfsizligi talablariga rioya etmagan holda olib borilayotgan yoki baxtsiz hodisa va avariya sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlarni to'xtatib turish;

o'z vakolatlari doirasida qonunchilik va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablarini buzganlik uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslari va jismoniy shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

2024-yil 1-oktabrdan boshlab shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

a) jismoniy shaxslar tomonidan Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi maxsus axborot tizimiga yuborilgan yer qa'ridan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarlik holatlari to'g'risidagi fotosuratlar va videoyozuvlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, ularni yuborgan shaxslar pul mukofoti bilan rag'batlantirilishi;

bunda fotosuratlar va (yoki) videoyozuvlardagi huquqbuzarlarning shaxsini aniqlash Inspeksiyaning so'roviga asosan ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilishi;

b) Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining rasmiy veb-saytida tog'-kon sanoati va geologiya sohasida xizmat ko'rsatish bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish bo'yicha "Geomonitoring" axborot tizimi doirasida "Kon-geologiya xizmatlari" moduli joriy etiladi va unda ushbu sohada faoliyat yurituvchi yuridik va jismoniy shaxslarning reytingi yuritilishi;

bunda:

kavlab olingan foydali qazilmalar hajmi to'g'risidagi elektron hisobotlarni axborot tizimlari orqali tasdiqlashga faqat "Kon-geologiya xizmatlari" modulida reytingi yuritiladigan marksheyderlik faoliyatini yurituvchi tashkilotlarga ruxsat etilishi;

qattiq foydali qazilmalar konlari va istiqbolli uchastkalarini o'rganish yuzasidan monitoring Inspeksiya tomonidan amalga oshiriladi, mazkur tadbirlar esa Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Inspeksiyaning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

yer qa'ridan foydalanish sohasidagi qonunchilik talablarini buzgan, kavlab olingan foydali qazilmalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni soxtalashtirishga yo'l qo'ygan yer qa'ridan foydalanuvchilar hamda marksheyderlik tashkilotlari, shuningdek, ularning rahbarlari va ta'sischilariga nisbatan Yer qa'ridan foydalanish sohasidagi qonunchilikni buzuvchilar reyestri yuritiladi va "Kon-geologiya xizmatlari" modulida joylashtirib borilishi;

Reyestrda kiritilgan tashkilotlar unga kiritilgan kundan boshlab bir yil davomida qonunchilikni buzish va ma'lumotlarni soxtalashtirishga takroran yo'l qo'ymagan taqdirda, ularga oid ma'lumotlar Reyestrda chiqarilishi;

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Qishloq xo'jaligi vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda noruda foydali qazilma konlarini auksion savdolariga chiqarishda tegishli yer uchastkalari toifalarini o'zgartirish hamda zarur hujjatlar to'plamini mutasaddi vazirlik va idoralar bilan kelishish jarayonlarini jadallashtirish yuzasidan asoslangan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

belgilanishicha:

2024-yilda Inspeksiya o'tkaziladigan shtatlar va bino-inshootlarni saqlash uchun xarajatlar, shuningdek, "Geologiya-marksheyderlik xizmati" MchJning kelgusida vujudga keluvchi qarzi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Inspeksiyaning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanishi;

2025-yildan boshlab Inspeksiya o'tkaziladigan shtatlar va bino-inshootlarni saqlash uchun xarajatlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

"O'zbek geologiya qidiruv" AJ ustav fondining miqdori "Regionalgeologiya" davlat muassasasi mulkining balans (qoldiq) qiymati asosida oshirilishi;

mazkur qarorga muvofiq bir tashkilotdan boshqa bir tashkilotga o'tkazilayotgan mulklar, mulkiy huquqlar, shuningdek, ustav kapitalidagi aksiyalar va ulushlar qiymati, shu jumladan ularni

qayta tashkil etish va tugatish jarayonlari soliqqa tortishning barcha turlari bo'yicha soliq solish obyekti hisoblanmasligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Inspeksiya markaziy apparati uchun 4 ta xizmat avtotransport vositasi, shu jumladan 3 ta shaxsiy biriktirilgan xizmat avtotransport vositasi, 1 ta navbatchi avtotransport vositasi hamda hududiy inspektorlar uchun 13 ta yengil xizmat avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratishi;

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilikka ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni tumanhokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev